

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA

**O‘ZBEK OILASIDA KUYOV-KELIN BILAN BOG‘LIQ NIKOH
MAROSIMLARINI ETNOMADANIY JARAYONGA TA’SIRI
(XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Surxon-Sherobod vohasi
misolida)**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Dusnazarova Mavjuda Pyamonovna

O‘zbek oilasida kuyov-kelin bilan bog‘liq nikoh marosimlarini etnomadaniy jarayonga ta’siri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Surxon-Sherobod vohasi misolida).....5

Дусназарова Мавжуда Илямоновна

Влияние брачных обрядов, связанных с женихом и невестой в узбекской семье, на этнокультурный процесс (вторая половина XIX – начало XXI века на примере Сурхан-Шерабадского оазиса).....26

Dusnazarova Mavjuda Pyamonovna

The influence of marriage ceremonies related to the bride and groom in the Uzbek family on the ethnocultural process (the second half of the 19th century – the beginning of the 21st century as an example of the Surkhan-Sherabad oasis).....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.TAR.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA

**O‘ZBEK OILASIDA KUYOV-KELIN BILAN BOG‘LIQ NIKOH
MAROSIMLARINI ETNOMADANIY JARAYONGA TA’SIRI
(XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Surxon-Sherobod vohasi
misolida)**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1268 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) amda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raxmonov Faxriddin Shoymardonovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Eshkurbonov Sirojiddin Bozorovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» dekabr soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (342 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» dekabr dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.R. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

O.A. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.E. Xolmo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashayotgan dunyoda an'anaviy oilaviy qadriyatlar davlatlarning ma'naviy barqarorligi va xalqaro miqyosda milliy madaniy o'ziga xosligini namoyon etishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Oilaviy marosimlar, xususan, to'y va nikoh an'analari jamiyatning ijtimoiy tuzilishida muhim o'rin tutib, avlodlar o'rtasida ma'naviy bog'liqlik va an'anaviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o'zgarishlar, sanoatlashish va urbanizatsiya jarayonlari nikoh marosimlari shakllarining takomillashuvi va ularning mazmuniy qirralariga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlar o'z milliy merosini asrash, oilaviy an'analarni rag'batlantirish va yangi avlod ongida tarixiy xotirani mustahkamlash yuzasidan davlat siyosatini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, YuNESKO va boshqa xalqaro madaniy tashkilotlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda madaniy merosni himoya qilish, milliy to'y marosimlari va an'anaviy oilaviy urf-odatlarini saqlash bo'yicha izchil tadbirlar olib borilmoqda¹. Xususan, yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda to'y marosimlarining tarbiyaviy rolini oshirish, an'anaviy marosimlarni hujjatlash, ilmiy o'rganish va qayta tiklash kabilar shular jumlasidandir.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida yetakchi ilmiy markaz va universitetlari tomonidan turli xalqlar va elatlarning tarixi, madaniyati hamda antropologiyasini o'rganishga yo'naltirilgan fundamental tadqiqotlar va xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlarda oila, nikoh va to'y marosimlari muhim etnologik obyekt sifatida o'rganilmoqda. Ayniqsa, milliy madaniyatlarda nikoh marosimlari orqali avlodlar o'rtasidagi uzviylik, madaniy merosni saqlab qolish, ijtimoiy o'zlik va guruh birdamligini mustahkamlovchi omil sifatidagi funksiyasi e'tiborga olinmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasida nikoh marosimlarining tarixiy shakllanishi, ularning bugungi holati va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bu yo'nalishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yuz bergan keng qamrovli etnik-madaniy jarayonlar ichida etnik o'zlikni anglashning yuksalishi, milliy o'z-o'zini idrok etish jarayonlarining chuqurlashuvi va an'anaviy milliy madaniyatning tiklanishi alohida ahamiyat kasb etdi. Bu jarayonlar, avvalo, tarixiy xotira va madaniy merosga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishiga, milliy qadriyatlarni qayta anglashga va ularni zamonaviy madaniyatning bir qismi sifatida qabul qilishga xizmat qildi. Bunda madaniy merosning funksional jihatdan ahamiyatli va yuqori semiotik qiymatga ega bo'lgan tarkibiy qismlari – ayniqsa, oilaviy marosimlar, to'y an'analari va ular orqali ifoda topadigan etnik o'ziga xosliklar yanada muhim o'rin tuta boshladi. Shuningdek, "Jadid bobolarimiz ham to'y-ma'rakalarimizdagi isrofgarchilik, dabdababozlik, maqtanchoqlik millatimizni ma'naviy tanazzulga yetaklaydigan illat ekani haqida qanday kuyunib o'tganlarini yaxshi bilamiz. ...

¹ ЮНЕСКО. Всеобщая декларация о культурном разнообразии: принята 2 ноября 2001 г. на 31-й сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО // Организация Объединённых Наций. – URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/cultural_diversity.shtml (дата обращения: 28.07.2025).

to'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar ming-minglab oilalarning nafaqat iqtisodiy ahvoriga, balki, butun hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda"². Shu nuqtai nazardan ushbu marosimlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat, san'at, oila va xotin-qizlar sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o'ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-sonli «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 1-martdagi PF-81-sonli «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, shuningdek, 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi shuningdek 2024-yil 14-noyabrdagi PR-185 “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Farmonlar hamda soha bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalar ijrosiga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot mazkur qarorlarning hayotga tatbiq etilishida nazariy asos va amaliy ko'mak sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy hamda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish usullari» mavzusiga muvofiq ravishda amalga oshirilgan. Ushbu ilmiy ish belgilangan yo'nalish doirasida nazariy va amaliy masalalarni yechishga hissa qo'shishga qaratilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Mazkur mavzuga oid tadqiqotlar uch asosiy davrga bo'lingan holda tahlil qilindi: birinchisi, Chor Rossiyasi hukmronligi davrida olib borilgan ilmiy izlanishlar; ikkinchisi, Sovet Ittifoqi davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar; uchinchisi esa, Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy ishlanmalarni o'z ichiga oladi. Har bir davrning o'ziga xos ilmiy yondashuvlari va metodologik yutuqlari alohida ko'rib chiqildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqa xalqlari turmush tarzi va madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Buxoro xonligining Sharqiy Buxoro hududlariga qilingan ekspeditsiyalarida mahalliy aholining turmush tarzi, nikoh to'ylariga oid urf-odatlar borasida N.A. Mayev etnografik ma'lumotlarni bayon qilgan³. A.Divayev o'zbeklarning oila-nikoh

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. 2017-yil 4-avgust. <https://president.uz/oz/lists/view/856>

³ Маев Н.А. Очерки горных бекств Бухарского ханства // МСТК. Вып.V. –СПб., 1879; Ўша муаллиф. Очерки Бухарского ханства (в кн. Туркестанский край). Вып. 5. СПб. 1899. – С. 77 – 129.

marosimlariga e'tiborini qaratadi⁴. Chor Rossiyasi davrida M.Gavrilovning tadqiqotlarida nikoh marosimiga oid masalalar, xususan, kelin tanlash bilan bog'liq urf-odatlar o'z ifodasini topgan⁵. Ushbu tadqiqotlardagi ma'lumotlar qiyosiy jihatdan tahlil qilishda ahamiyatlidir.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar nikoh urf-odatlari bo'yicha qimmatli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, N.P. Lobacheva hamda P.G.Snesarevlarning Xorazm vohasi o'zbeklarining nikoh to'ylarida amalga oshiriladigan marosimlarga bag'ishlangan tadqiqotlaridan mavzuni qiyosiy maqsadda o'rganishda asqotdi⁶. Ushbu tadqiqotlarda nikoh to'yi marosimlaridagi qadimiy diniy e'tiqodlarning ko'rinishlari batafsil bayon etilgan.

O'zbek xalqining nikoh va oila tuzish an'analarini ilmiy tadqiq etgan olimlardan biri, o'zbek etnografiyasiga salmoqli hissa qo'shgan etnograf Karim Shoniyozov tadqiqotlari Surxon vohasi etnografiyasini o'rganishda alohida ahamiyatga ega⁷. Shuningdek, O.A.Suxareva esa tojiklarning oila va nikoh munosabatlarini o'rgangan bo'lsa, S.M.Abramzon esa Pomir qirg'izlarining nikoh to'ylari bilan bog'liq urf-odatlarini chuqur tahlil etgan⁸. Markaziy Osiyodagi o'zbek va tojik oilasining turmush tarzini o'rgangan tadqiqotchi N.A.Kislyakovning ishlari alohida diqqatga sazovor. Etnograf nikoh oldi va nikoh marosimlarini o'tkazish tartibi, ishtirokchilar hamda ulardagi an'ana, urf-odatlarni batafsil yoritgan⁹.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar sifatida I.Jabborovning o'zbek xalqining turmush tarziga bag'ishlangan asarlarida o'zbeklarning nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlari ham aks etgan¹⁰. Xususan, mintaqaning mahalliy madaniyatiga xos diniy va etnik jihatlar, oila-nikoh marosimlari hamda iqtisodiy turmush tarzining o'zaro uyg'unlashuvini chiroyli aks ettirgan.

A.Ashirovning qadimgi e'tiqodiy qarashlarga bag'ishlangan fundamental asarida nikoh bilan bog'liq marosimlar muhim qism sifatida amalga oshirilganligi, to'ylarda ijtimoiy mazmun kiritgan qadimiy urf-odatlar diniy qoidalarga moslashib, yangi shakl-mazmun kasb etganligi chuqur tahlil etilgan¹¹.

O'zbek oilalarida sovchilik jarayoni va nikoh to'ylarni o'tkazish masalalarida umr yo'ldoshi tanlashning o'ziga xos xususiyatlari, oila qurishda o'zaro sevgi-muhabbat, nasl-nasab, ijtimoiy tabaqa, millatga e'tiborning bugungi kundagi

⁴ Диваев А.А. Проводы невесты. (Обычай сартов города Чимкента) // Сб. Материалов для статистики Сырдарьинской области. – 1885. – № 4. – С. 96 – 98.

⁵ Гаврилов М. Сартовская свадьба // Туркестанские ведомости. 1911. № 150, 152.

⁶ Лобачева Н.П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С. 298 – 329; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.

⁷ Шаниязов К. Узбеки-карлуки (Историко-этнографический очерк). – Т.: Фан, 1964. – 195 с; К этнической истории узбекского народа. – Т.: Фан, 1974. – 342 с.

⁸ Сухарева О.А. Некоторые вопросы брака и свадебные обряды у таджиков к. Шахристан. – СПб., 1938; Абрамзон С.М. Свадебные обычаи у киргизов Памира // Труды АН ТадССР. Т. 20. – М., 1959.

⁹ Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л.: Наука, 1969; Ўша муаллиф. Семья и брак у таджиков. – Москва; АН, 1959. – С. 75 – 93.

¹⁰ Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.: Ўқитувчи, 2003.

¹¹ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 272 б.

ko‘rinishlari Toshkent shahri misolida etnolog olimi Z.Rasulova tomonidan asosli tahlil qilib berilgan¹².

Darhaqiqat, mavzuni chuqurroq tahlil etishda hududlar kesimida bajarilgan tadqiqotlarga ham murojaat qilindi. Xususan, S.Soatova¹³, G.Tosheva¹⁴, N.Matkarimova¹⁵, B.Tursunov¹⁶, X.Nafiddinova¹⁷larning ilmiy tadqiqotlaridan qiyosiy o‘rinlarda foydalanildi.

Surxon vohasi hududida to‘yga tayyorlanish bir qator marosim va tadbirlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, kelin va kuyovning kiyim-kechaklari, taqinchoqlari, to‘y dasturxoniga qo‘yiladigan maxsus taomlar va an‘anaviy hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash muhim jarayondir. Qolaversa, kelin-kuyov liboslari vohaga xos yorqin bo‘lib, naqsh va ranglar bilan boyitilgan. To‘y uchun tayyorlanadigan pishiriqlar va boshqa maxsus taomlar esa muhim o‘rin egallagan. Shuningdek, kelin-kuyov uchun bezatiladigan uy-joylar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Shu jihatdan olganda, kelin-kuyov an‘anaviy liboslarini o‘rganishda etnolog olimi S.Davlatova ishlariga murojaat qilingan bo‘lsa¹⁸, nikoh to‘yi kuni marosim taomlarini o‘rganish va yoritishda etnolog olimi M. Fayzullayevaning tadqiqotlariga e‘tibor qaratildi¹⁹. Bundan tashqari, o‘rganilayotgan davrning oila uchun turar-joylar qurishda uning me‘morчилиги, mintaqaning mahalliy madaniyatiga xos diniy va etnik jihatlari hamda iqtisodiy turmush tarzining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanganligi borasidagi fikrlarni mustahkamlash maqsadida, qolaversa, aynan vohaga xos bo‘lgan moddiy madaniyatni o‘rganish niyatida S.Tursunov va T.Pardayevlarning²⁰ hamda etnograf tadqiqotchilar A.E.Qurbonov²¹ bilan S.N.Tursunovlar²² ning shu mavzuga tegishli tadqiqotlari va adabiyotlaridan o‘rinli foydalanildi.

Ushbu tadqiqot ishida xalq og‘zaki ijodida nikoh to‘yi bilan bog‘liq jihatlarga ham e‘tibor qaratilgan. Xususan, xalq og‘zaki ijodida nikoh to‘yining tarannum etilishi bevosita xalqning hayot tarzi, e‘tiqodlari va tarixiy tajribasi bilan

¹² Rasulova Z.A. Toshkent shahri o‘zbeklarining oila va nikoh munosabatlari (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Tar. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B. 54 – 56.

¹³ Соатова С.А. Юкори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XIX аср охири – XX аср боши): Тарих фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1999. – 139 б.

¹⁴ Тошева Г.С. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари.: Тарих фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2002. – 182 б.

¹⁵ Маткаримова Н. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Нукус, 2020.

¹⁶ Турсунов Б.Р. XX асрда Фағона водийси аҳолисида оила, оилавий маросимлар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. (Конибодом воҳаси мисолида): Тарих фан.номз. ... дис. – Тошкент-Хўжанд, 2002.

¹⁷ Нафиддинова Х. Mustaqillik yillarida Бухоро vohasi aholisi an‘anaviy oilaviy marosimlari va ulardagi o‘zgarishlar. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2023.

¹⁸ Давлатова С.Т. Ўзбек миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.

¹⁹ Файзуллаева М.Х. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. – Т.: Yangi nashr, 2010. – 160 б.; Ўзбек миллий таомлари ва тановул маданияти (Сурхон воҳаси материаллари асосида). – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021.

²⁰ Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. O‘zbekiston tarixi va madaniyati—Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.; Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. — Т.: Akademyashr, 2012. – 232 б.

²¹ Qurbonov A.E. Shimoliy Surxon vohasi aholisi an‘anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2009.

²² Турсунов Н.Н. Этнические особенности населения Южносурханского оазиса (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 2007. – 31 с.

chambarchas bog‘liq ekanligi I.Umarovning tadqiqot ishida Surxon vohasi misolida batafsil yoritilganligi bois, ushbu tadqiqot ishidan ham kerakli o‘rinlarda foydalanildi²³.

Shuningdek, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar sifatida R.Fayzullayev, T.Shirinov, Sh.Murodova, O.Shomurodova, R.Xolmurodov, I.Karimov tomonidan amalga oshirilgan ishlarni keltirishimiz mumkin²⁴.

Ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqotlar faqat turli davrlarda amalga oshirilgani bilangina emas, balki mazmuni, tadqiqot uslublari, foydalanilgan manbalari, hajmi va Surxon vohasidagi etnoslar hamda madaniy xususiyatlarni qamrab olish darajasi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, voha aholisining oila va nikoh munosabatlariga xos bo‘lgan turmush tarzi hali kompleks yondashuv asosida to‘liq tahlil qilinmagan. Xususan, Surxon vohasidagi an’anaviy nikoh marosimlari masalasi bugungi kungacha atroflicha va har tomonlama o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur mavzu mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishni talab etadi. S.N.Tursunov²⁵ tomonidan amalga oshirilgan ishlarni keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari S.A.Soatova²⁶, G.S.Tosheva²⁷, A.E.Qurbonov²⁸, I.Umarov²⁹ning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot faoliyati rejalari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilgan bo‘lib, u universitetning ATD – “O‘zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma’naviy madaniyat” mavzusiga oid ilmiy tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan. Ushbu ish mazkur yo‘nalishda belgilangan ilmiy vazifalarning ijrosiga xizmat qiladi.

²³ Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.

²⁴ Fayzullayev, R. Oila va nikoh marosimlarining tarixiy-etnografik rivoji. – Toshkent: Sharq NMAK, 2015. – 256 b.; Shirinov, T. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi nikoh va oila an‘analari. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2018. – 184 b.; Murodova, Sh. Surxon vohasi nikoh marosimlarida folklor va qadriyatlar uyg‘unligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 172 b.; Shomurodova, O. Surxon-Sherobod vohasidagi kelin-kuyov an‘analari va ularning zamonaviy ta’siri. – Termiz: Termiz universiteti nashriyoti, 2020. – 145 b.; Xolmurodov, R. XIX-XXI asrlarda nikoh marosimlarining tarixiy rivoji. – Toshkent: Fan va madaniyat, 2018. – 230 b.; Karimov I. Nikoh va diniy qadriyatlarining o‘zaro ta’siri. – Toshkent: Islom va madaniyat markazi, 2020. – 176 b.

²⁵ Fayzullayev, R. Oila va nikoh marosimlarining tarixiy-etnografik rivoji. –Toshkent: Sharq NMAK, 2015. – 256 bet., Shirinov, T. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi nikoh va oila an‘analari. –Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2018. – 184 bet; Murodova, Sh. Surxon vohasi nikoh marosimlarida folklor va qadriyatlar uyg‘unligi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 172 bet; Shomurodova, O. Surxon-Sherobod vohasidagi kelin-kuyov an‘analari va ularning zamonaviy ta’siri. –Termiz: Termiz universiteti nashriyoti, 2020. – 145 bet; Xolmurodov, R. XIX-XXI asrlarda nikoh marosimlarining tarixiy rivoji. Toshkent: Fan va madaniyat, 2018. – 230 bet; Karimov, I. Nikoh va diniy qadriyatlarining o‘zaro ta’siri. Toshkent: Islom va madaniyat markazi, 2020. – 176 bet; Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. O‘zbekiston tarixi va madaniyati–Surxondaryo etnografiyasi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.

²⁶ Soatova S.A. Yuqori Zarafshon vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari (XIX asr oxiri–XX asr boshi). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 1999.

²⁷ Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari. Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 2002.

²⁸ Qurbonov A.E. Shimoliy Surxon vohasi aholisi an’anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2009.

²⁹ Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek oilasida kuyov va kelin bilan bog‘liq nikoh marosimlarining tarixiy rivojlanishi, etnomadaniy jarayonlarga ta’siri va hududiy xususiyatlarini, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida Surxon-Sherobod vohasi misolida, ilmiy asosda tadqiq etishdan iborat. Ushbu jarayonlarni o‘rganish orqali o‘zbek xalqining nikoh va oila tuzish an‘analarining milliy meros sifatidagi o‘rnini aniqlash va ularning ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini yoritish maqsad qilingan.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxon-Sherobod vohasida nikoh, oila va qalin an‘analarining tarixiy-madaniy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganish;

nikoh to‘yiga tayyorgarlik jarayonidagi urf-odat va marosimlarning xususiyatlarini tadqiq etish;

Surxon-Sherobod vohasida nikoh to‘ylari bilan bog‘liq an‘anaviy marosimlarning etnomadaniy tahlilini amalga oshirish;

yosh kuyov-kelinlarning uylari, kiyim-kechak va taqinchoqlarida an‘anaviylik va zamonaviylik masalalarini o‘rganish;

an‘anaviy nikoh to‘y marosimlarining etnik va hududiy xususiyatlari ko‘rsatib berish;

xalq og‘zaki ijodida nikoh to‘yi bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti. Mazkur tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmidan XXI asr boshlariga qadar bo‘lgan davrda Surxon-Sherobod vohasida nikoh va oila munosabatlariga oid urf-odatlar va marosimlar tanlab o‘rganiladi. Ushbu an‘analar va marosimlarning etnomadaniy jarayonlarga ta’siri, ularning oila instituti va jamiyat hayotidagi o‘rni hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari chuqur ilmiy tahlil asosida tadqiq qilinadi.

Tadqiqotning predmeti. Surxon-Sherobod vohasida kuyov va kelin bilan bog‘liq nikoh marosimlari, jumladan, sovchilik, unashtirish, qalin berish, nikoh to‘yiga tayyorgarlik hamda to‘y marosimlarini o‘tkazish jarayonlarining etnomadaniy mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, hududiy va etnik xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ushbu marosimlarning milliy madaniyat va an‘analardagi o‘rni va ahamiyati har tomonlama o‘rganiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuni yoritish jarayonida tarixiy-tahliliy va etnografik kuzatuv usullari, qiyosiy (komparativ) tahlil, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish, arxiv materiallari va yozma manbalarni tahlil qilish kabi ilmiy usullardan keng foydalanildi. Shuningdek, so‘rovnoma va suhbat (intervyu) o‘tkazish hamda antropologik tadqiqot usullari qo‘llanilib, mavzuga doir chuqur va har tomonlama ilmiy yondashuv amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxon-Sherobod vohasida yosh bolalarni go‘daklik chog‘ida unashtirib qo‘yish bilan bog‘liq, “Quloqtishlar”, “Beshik kerti”, “Etak yirtish”, “Etakka solish” kabi udumlar bo‘lganligi biroq bu udumlar quda tomonlarning qarindosh – urug‘chilik va oshna – og‘aynichilikning uzilib ketmasligi maqsadida amalga oshirilganligi aniqlandi;

Surxon vohasi nikoh to‘ylarida qilinadigan xarajatlar “Korda”, (o‘zaro kelishuv), “Ko‘gan to‘ldirish” (qizning uyiga haydab boriladigan chorva mollari soni), “Surug‘” (kelinga beriladigan kiyim kechak va taqinchoqlar), “Borg‘i” (qudalarga beriladigan sarpo) shaklida bo‘lib, bu yurtimizning boshqa hududlarida umuman boshqa nomlar bilan atalishi hamda udumlardagi farqlar dalillandi;

voha chorvador aholisi kelin kuyov uchun oq o‘tov tikkanligi, oq o‘tov faqat qishloq oqsoqoli yoki qabila boshlig‘ining yashash manzili bo‘lib qolmasdan balki yosh kelin-kuyovlar uchun ham barpo qilinganligi, o‘troq aholi esa kelinni “Xurjun tom”, “Bomi tom” yoki Cho‘pkori uylarga tushirib olganligi bilan bog‘liq an‘analar keng yoyilganligi Boysun, Sariosiyo, Sherobod, Termiz va Jarqo‘rg‘on hududlarida yashovchi aholi turmushini qiyoslash asosida asoslangan;

voha aholisi orasida oila va nikoh marosimlari bilan bog‘liq “Tovoq jo‘natar”, “Tag bosti”, “Ona chiqdi”, “Boqqan tutdi” marosimlarini yurtimizning boshqa hududlarida uchramasligi, ushbu udumlarning ayrimlari, vohaning turli tumanlarida o‘ziga xos lokal xususiyatga egaligi Jarqo‘rg‘on va Boysun, Sherobod va Termiz tumanlaridagi farqli jihatlar asosida dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat. Surxon-Sherobod vohasida kuyov va kelin bilan bog‘liq nikoh udumlarini o‘rganish jarayonida to‘plangan etnografik ma‘lumotlar asosida maxsus etnologik so‘rovnomalar ishlab chiqilib, amaliy qo‘llanishga tatbiq etildi. Ushbu tadqiqot natijalari turli ilmiy-amaliy tadbirlar, konferensiyalar va festivallar dasturlarini tashkil etishda asos sifatida qo‘llanilib, mahalliy madaniyatning boy an‘anaviy merosini targ‘ib qilishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma‘lumotlar oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida tarix, etnografiya va o‘lkashunoslik fanlaridan saboqlar o‘tishda keng qo‘llanildi. Shu bilan birga, ushbu materiallar mazkur yo‘nalishdagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, oila-nikoh udumlariga oid ilmiy-tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Mazkur dissertatsiyada etnologiya fanida e‘tirof etilgan metod va yondashuvlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, turli tarixiy va etnografik manbalarga ilmiy asosda chuqur tahliliy yondashuv amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan bo‘lib, olingan natijalar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati Surxon-Sherobod vohasidagi urf-odatlar va an‘analar misolida o‘zbek xalqining nikoh va oila munosabatlariga oid an‘analar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirishdan iborat. Tadqiqot natijalari etnografik izlanishlar uchun muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi va xalq og‘zaki ijodining nikoh marosimlariga ko‘rsatgan ta‘sirini chuqur tahlil etadi. Shuningdek, mazkur an‘analar va marosimlarning hududiy va etnik o‘ziga xosliklari, shuningdek, nikoh to‘ylari bilan bog‘liq jarayonlarning madaniy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilganligi bilan ushbu tadqiqot alohida ilmiy qimmatlilik kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa unda to‘plangan materiallar hamda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalarning kuyov va kelin bilan bog‘liq nikoh an‘analarini o‘rganishga bag‘ishlangan monografiyalarni yaratishda, ma‘naviyat markazlari uchun ma‘lumotnoma materiallarini ishlab chiqishda, shuningdek, mavzuga doir ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirishda qo‘llanilishi bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek oilasida kuyov-kelin bilan bog‘liq nikoh udumlarining etnomadaniy jarayonga ta‘sirini (XIX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari Surxon-Sherobod vohasi misolida) o‘rganish yuzasidan to‘plangan ma‘lumotlar asosida:

Surxon-Sherobod vohasida yosh bolalarni go‘daklik chog‘ida unashtirib qo‘yish bilan bog‘liq, “Quloqtishlar”, “Beshik kerti”, “Etak yirtish”, “Etakka solish” kabi udumlar bo‘lganligi biroq bu udumlar quda tomonlarning qarindosh – urug‘chilik va oshna – og‘aynichilikning uzilib ketmasligi maqsadida amalga oshirilganligi aniqlandi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-yanvardagi 02-31-64-son ma‘lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning o‘zbek xalqining oila va nikoh bilan bog‘liq qadriyatlari haqidagi tasavvurlarining kengayishiga hizmat qilgan.

Surxon-Sherobod vohasida nikoh to‘ylarida qilinadigan xarajatlar, “Korda”, (o‘zaro kelishuv), “Ko‘gan to‘ldirish” (qizning uyiga haydab boriladigan chorva mollari soni), “Surug‘” (kelinga beriladigan kiyim kechak va taqinchoqlar), “Borg‘i” (qudalarga beriladigan sarpo) shaklida bo‘lib, bu yurtimizning boshqa hududlarida umuman boshqa nomlar bilan atalishi hamda udumlardagi farqlar dalillandi. (O‘zbekiston Respublikasi Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi vazirligining 2023-yil 25-yanvardagi 02-22/56-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek xalqining boy qadriyatlari nikoh bilan bog‘liq an‘anasi va udumlari haqidagi keng qamrovli ma‘lumotlar ma‘naviy - ma‘rifiy tadbirlar mazmun va mohiyatini boyitishga asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalarining ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilinib, 6 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta esa respublika miqyosidagi konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, 6 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, yana 5 ta xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan. Shuningdek, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalar materiallari hamda to‘plamlarda 6 ta maqola chop etilib, tadqiqot natijalari keng ommaga taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, aprotatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, tarkibiy tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Surxon-Sherobod vohasida oila-nikoh hamda nikoh to‘yiga qadar amalga oshiriladigan an’anaviy marosimlarining tarixiy-madaniy va ijtimoiy jihatlari»** deb ataladi. Unda o‘zbek xalqida oila-nikoh munosabatlari va sovchilik, unashirish va qalin berish bilan bog‘liq udumlar tahlil qilinadi.

Oila – jamiyatning eng kichik va ayni vaqtda, eng muhim bo‘lagi hisoblanadi. Sog‘lom va mustahkam oilada tarbiya ko‘rgan kishilar mehnatsevar, yurtsevar, mehribon, iymon-e’tiqodi butun bo‘ladi. Shuning uchun deyarli barcha dinlarda oila muqaddas o‘choq sifatida e’tirof etiladi. Ulug‘ sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin ibn Faxriddin va boshqalarning asarlarida oila haqidagi qarashlari bayon etiladi.

«Oila» so‘zi arabcha bo‘lib, «bola-chaqa», «uy», «urug‘» kabi tushunchalarda keladi. Binobarin, oila bu er-xotin, ularning bolalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar guruhi, uyidir³⁰. Qadimgi turklarda «oila» so‘zi «arqag‘un»³¹ yoki «törkün» (qavm, qabila, ota-onaning uyi)³² kabi atamalar bilan ifodalangan.

Oila o‘chog‘i nikoh munosabatlari natijasida tashkil topadi. Nikoh - er va xotin o‘rtasidagi muayyan ittifoq va uning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi hamda ma‘qullanishidir³³. Aynan nikoh tufayli turli-turli uylarda, butunlay o‘zga sharoitda ulg‘ayib, voyaga yetgan ikki yosh oila qurib, birga yashay boshlaydilar. «Nikoh» atamasi arabchadan olingan bo‘lib, «uylanish», «erga tegish», «er-xotinlilik», «qo‘shilish» kabi tushunchalarda keladi. Aniqroq qilib aytilganda, nikoh bu – er-xotinlik munosabatlarning shariat tomonidan rasmiylashtiriladigan shartnoma sanaladi³⁴.

Demak, nikoh va oila bir-biriga uzviy bog‘liqlikda rivojlanib kelgan. O‘zbek tilida nikoh va oila bilan bog‘liq tushunchalardan «uylanmoq», «turmush qurmoq», «er-xotin bo‘lmoq» kabi atamalar mavjud.

O‘zbek oilasi qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Etnografik tadqiqotlarga ko‘ra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlar oilaning matriarxat davriga tegishli ekanligidan dalolat beradi. M.O.Kosvenning yozishicha, matriarxat munosabatlari davrida nikoh ko‘pincha erning emas, balki ayolning tashabbusi bilan tuzilgan³⁵.

³⁰O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. –Toshkent, 2007. –B. 97.

³¹Radloff. Alttürkische Inschriften der Mongolei etc. Neue Folge, S. 161.

³²Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni (Devoni lug‘atit turk). 1 jild. –Toshkent, 1960. –B. 414.

³³Otaxo‘jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1995. –B. 19.

³⁴O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. –Toshkent, 2007. –B. 38.

³⁵Kosven O.M. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. Toshkent. 1960. – B.153.

Qadimgi grek-rim manbalari ham yurtimizdagi nikoh yoshiga yetgan ayollarining jismonan kuchli bo'lganligini tasdiqlaydi. Xususan, rim tarixchisi Klavdiy Elianning ma'lumotiga ko'ra, agar saklardan biron erkak qaysidir qizni xotinlikka olmoqchi bo'lsa, u bilan kurashadi. Qaysi biri yutsa, o'sha buyuradi va hukmronlik qiladi; engilgan – bo'ysunadi³⁶.

Qadimgi turklarda ayol muqaddas sanalgan. Islomgacha turk ayollari urug'ning taniqli kishilari yig'ini, ya'ni qurultoy yoki to'ylarda qatnasha olganlar, xoqonlar esa, o'z qarorini xotini bilan birga qabul qilganlar. Qadimgi turklarda oila nikoh to'yi natijasida yuzaga keladi. Turklarda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh taqiqlab qo'yilgan. Nikoh yoshida chegara qo'yilmagan.

Ota o'z bolalari va otalig'iga olingan bolalarni erta uylantirishi yoki erga berishi mumkin edi. Biroq buning uchun bolalar oldin ulg'ayib, voyaga etishlari kerak bo'lgan. Nikoh sharti sifatida ota-ona va bolalarning roziligi talab etilgan. Otalar yoki otaliqlar o'g'illarining ko'ngliga qarab ish tutganlar. Ular o'g'illarining o'z sevikli yorlariga uylanishlariga kamdan-kam hollardagina qarshilik qilganlar. Nikohning boshqa sharti sifatida kuyov yoki uning ota-onasi tomonidan kelinning otasi uchun qalin berishi talab etilgan. Qalin kelinning narxi hisoblanmagan. Aksincha, qizni bolaligidan o'sib tarbiya qilganligi uchun ketgan chiqimlarni qoplash maqsadida uning ota-onasiga beriladigan haq sifatida tushunganlar. Qalin miqdori bir necha bosh qo'ydan yuzlab otlar yoki otar-otar qo'ylargacha etgan³⁷.

O'zbekiston yerlariga arablar kirib kelishi bilan nikoh va oila munosabatlari islomiy tusga kiradi. Islom dini hukmronligi sharoitida ota-bobolarimiz nikoh masalalariga juda katta e'tibor berganlar. Zero, nikoh – Islom dinidagi eng muqaddas tushunchalardan biridir.

XIX-XX asrlarda Surxon vohasiga xos xususiyat bu aholining katta oila bo'lib yashashi hisoblanadi. Katta oila bir otaning uch-to'rt avlodidan iborat eng yaqin qarindoshlari, ularning xotin va bolalari, ba'zan kuyovlari va oilaga qabul qilingan boshqa qarindoshlar hisobiga yuz va undan ortiq kishilardan tashkil topgan xo'jalik guruhidir. Bunday oilalar «katta ota (patriarxal) urug'i» deb atalgan. Bir nechta katta oilalar birlashib urug' jamoasini, ular esa, o'z navbatida «aymoq»ni tashkil etgan. Shundan «urug'-aymoq» so'zi kelib chiqqan. Aymoqlarning birlashuvi natijasida qabila ittifoqi, keyinroq elat va millat yuzaga kelgan.

Surxon vohasida nikoh masalalari shariat va odat huquqi asosida olib borilar edi. Odat asosidagi nikohlardan «levirat», «sororat», «voy-voy nikoh», «qarshi quda», «kuchkuyov», «ichkuyov» kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Barcha musulmon mamlakatlarida bo'lgani singari Surxon vohasida ham ko'p xotinlilik uchragan. Udumga ko'ra, imkoniyati etgan erkaklar to'rttagacha xotin olishlari mumkin edi. Ammo ko'p xotinlilik keng tarqalmagan. Keyingi nikoh ko'pincha beva ayollar bilan bo'lar edi. Ko'p xotinlilik asosan urush yillarida keng tarqalar edi. Negaki, urush tufayli ko'pgina yigitlar halok bo'lar, oqibatda aholi

³⁶ Клавдий Элиан. Пестрые рассказы. М—Л, 1963. Перевод с дрнегреческого, статья, примечания и указатель С. В. Поляковой, стр. 125-143, книга 12, 38.

³⁷ Садри Максуди Ареал. Тюркская история и право. Перевод с турецкого языка Рафаэля Мухамметдинова. — Казань: ФЭн. 2002. —С. 272.

nufuzida ayollar son jihatdan ko‘p bo‘lib qolar edi. Xotinlar egasiz qolmasligi uchun urug‘ oqsoqollari ularni tezroq erga berib yuborishga harakat qilganlar.

Surxondaryoning Ko‘hitangtog‘ qishloqlarida voyaga yetmagan qizlarni erta nikohga kirishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida taniqli xotinlar tomonidan sinovlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan edi. Bunda onalar o‘z qizlarini oilaviy hayot va turmushga tayyorlashgan. 17 yoshga to‘lgan qizlar Navro‘z paytida yoshi ulug‘ ayollarga imtihon topshirar edilar. Sinovdan o‘tgan qizlarga turmushga tayyor deb e‘lon qilinar edi³⁸.

Sovchilik o‘zbek elining eng go‘zal va qadimiy udumlaridan biridir. Zero o‘g‘lini uylantirish istagida bo‘lgan ota-onalar sovchilik asosida bolasiga juft izlaydi. Sovchilarning bosh vazifasi bir-biriga munosib ikki yoshning boshini qovushtirishdir. Sovchilardan juda ehtiyotkorlik, har bir so‘zini o‘ylab gapirish va so‘zlash madaniyati talab etiladi. Negaki, kelinning kelgusidagi turmushi sovchilarning did-farosati va o‘zini tutishiga bog‘liq bo‘ladi. Tabiiyki, O‘zbekistonning har bir hududida sovchilik bilan aloqador o‘ziga xos udumlarni kuzatish mumkin.

Oldindan kelin-kuyov tanlash ota-onaning ishi hisoblangan. Yigit va qizning ko‘ngliga qaralmagan. Avval bo‘lg‘usi kelin tanlangan. Bunda yoshlarning yulduzi to‘g‘ri kelish-kelmasligi, qizning nasl-nasabi surishtiriladi. Shundan keyin qizning uyiga sovchilikka boriladi. Odat bo‘yicha sovchilikka yigitning otasi boradi. Agar ota olamdan o‘tgan bo‘lsa, eng yaqin kishisi, ya‘ni *xeshi* yuboriladi. Sherobod tumanidagi Xatak va Xo‘janqon qishloqlarida sovchilikka ayollar borishi mumkin bo‘lmagan. Oila yaqinlaridan sovchilikka munosib odam bo‘lmagan holda bu vazifani urug‘ oqsoqollari bajaraganlar³⁹.

Farg‘ona vodiysi qipchoqlarida sovchilik qiluvchi shaxs oq va qizil ot mingan holda qiz yashaydigan uyga borgan. Sovchilar bu ezgu maqsadda hech qachon qora otdan foydalanmaganlar. Chunki qora otda borish ish bitmasligiga sabab bo‘ladi, deb hisoblaganlar⁴⁰.

Ayrim hollarda yigitlar ota-onasi aytgan qizga uylanishni istamay, o‘zlariga yoqqan qizlarga uylanmoqchi bo‘lsalar, muayyan udumlarni bajarishlari lozim bo‘lgan. Masalan, XX asr o‘rtalariga qadar Boysun, Sherobod va Termizda o‘tkaziladigan hosil bayramlarida «olmaotar» odati mavjud bo‘lgan. Unda yosh, uylanmagan yigitlar o‘zlariga yoqqan qizlarga qarata olma otganlar. Mabodo olma tegadigan bo‘lsa, yigit o‘sha qizga uylanishi kerak, degan tushuncha bo‘lgan. Shu bois onalar qizlariga olma tegmasligi uchun ularni qo‘riqlaganlar. Sherobod tumanidagi Kampirtepa qishlog‘ida esa hayit kunlari unashtirilganlar va sevishganlar bo‘yalgan tuxum bilan bir-birlariga qarata otganlar. Bu odat «tuxumotar» deb atalgan⁴¹.

³⁸Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. –B. 95.

³⁹Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak va Xo‘janqon qishloqlari, 2022-yil avgust.

⁴⁰Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. –B. 89.

⁴¹Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. –B. 91.

Sovchi kelib, qizning ota-onasi rozilik bergandan so'ng unashtiruv marosimi o'tkaziladi. Unashtiruv udumi shevada «patiya» (fotiha), unashtirilganlar esa «patiyaxanda» deyiladi. Unashtiruv payti ikki tomonning kelishuvi sodir bo'ladi. Buni «karda» deyilib, unda kuyov tomonidan nechta mol, qo'y, echki, paxtalik, un va shu kabi narsalar, ya'ni qalin berishi aniqlab olinadi.

«Qaliñ»-qadimgi turkiycha so'z bo'lib, «kelinga berilgan to'lov» tushunchasida keladi. Odatga ko'ra, qalin miqdori urug' kengashi va oqsoqollar tomonidan belgilangan va yigit tomonidanto'langan⁴².

Qalinning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga borib taqaladi. Patriarxal tuzumga o'tilishi sharoitida oila ayolga ishchi kuchi sifatida qarab, uni boshqa urug'ga uzatganlik uchun tovon sifatida muayyan miqdorda haq olish boshlangan⁴³.

Yurtimizda islom dini tarqala boshlaganidan keyin bu udumlar ham islomiy tusga kira boshlaydi. Odatga ko'ra, kelin to'y kuni kuyovning uyiga o'z sepi bilan birga ketgan. Sep esa, otaning qiziga beradigan ulushi hisoblangan. Ota o'limidan keyin ham qiz shariat bo'yicha otasining merosidan ulush olishga haqqi bo'lgan. Agar qiz boshqa urug'ga uzatilgan bo'lsa, u holda merosning bir qismi chetga chiqishi mumkin bo'lgan. Shuni hisobga olib, qalinni belgilashda oldiniga nikohlanuvchilarning qarindoshlik darajasi aniqlangan⁴⁴. Mulk o'zga urug'larga chiqib ketishining oldini olish uchun nikoh ko'pincha urug'ning ichida amalga oshirilgan. Qizlarni o'z urug'idan tashqariga bermaslik odati ham mulkni saqlab qolishga bo'lgan intilishni sabab qilib ko'rsatish mumkin⁴⁵.

Boshqa o'lkalarda qalin masalasi turlicha bo'lgan. M.Elfinstonning yozishicha, pushtunlarda yosh yigit unashtiruvdan so'ng to to'yga qadar qalin uchun mablag' yig'a boshlaydi. Agar kuyov kambag'al bo'lsa 1-2 yil, boy bo'lsa 2-3 oy tayyorgarlik ko'radi⁴⁶. XX asrga kelib qalin miqdori oshgach, aholining to'lov qobiliyati ancha qiyinlashdi. Natijada erkaklarning kech nikohi yoki xotirlarning tengsiz nikohlari ko'paya boshladi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida qozoq urug'larida qalin uchun 5 - 10 bosh qoramol berilgan. Sirdaryo bo'ylarida yashagan qirg'izlarda qalining o'rtacha 6 – 8 bosh qo'y, kelin uchun o'tov, qizni olib ketish uchun ot va boshqalar bilan to'langan⁴⁷.

Nikoh to'yiga qizning ota-onasi ham jiddiy tayyorgarlik ko'rib sep yig'ganlar. Qiz uchun tayyorlangan sep to'qqizta turli mato va taqinchoqlardan iborat bo'lgan. Unga: kelin kiyib yurishi uchun o'nta oddiy, o'nta mayda, beshta katta, to'rtta o'rta ro'mol, shuningdek, adras, shoyi, atlas, chit, satin va turli taqinchoqlar – oyna, isirg'a, bilaguzuk, xapavand va boshqalar kirgan. Sepga solish uchun bozordan olib kelingan mato va taqinchoqlarning hammasi «kola» deb atalgan. Umuman olganda

⁴²Musakulov A. Qalin // Muloqot. 1993, № 11-12. –B. 53.

⁴³Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. -Toshkent, 1960. –B. 135.

⁴⁴Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Ташкент, 1974. –С.302-308.

⁴⁵ Rasulova Z. O'zbeklarning nikoh to'yigacha bo'lgan marosimlari. Qalin berish odati misolida. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. –B. 71.

⁴⁶ Elphinstone M. Account of the Kingdom of Cabul and its Dependencies in Persia and India. London, 1815. – P.238.

⁴⁷ Soatova S.A. Yuqori Zarafshon vohasi o'zbeklarining nikoh to'yi marosimlari (XIX asr oxiri - XX asr boshi): Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. -Toshkent, 1999. –B. 39.

ota-onaning qiziga beradigan sovg‘asi «sep», «kola» va «to‘qqiz» kabi nomlar bilan atalgan⁴⁸.

Ko‘p hollarda kuyov to‘y qilish yoki qalin to‘lashga imkoni bo‘lmaganligi sabab to‘y kechiktirib turadi. Qalin to‘lashga qurbi etmagan kishilar kambag‘allar bo‘lib, ular *chig‘ay* deb atalganlar. Ana shunday hollarda «qalliq o‘yin» amalga oshiriladi. Agar ilk bor uchrashishayotgan bo‘lishsa, yoki nikohdan o‘tmagan bo‘lsalar, ular guvohlar oldicha ko‘rishishadi. Faqat bu holatda uchrashuv kelining uyida bo‘ladi. Qiz bilan yigit ayb ish qilmasliklari uchun to‘ysiz nikohdan o‘tkaziladi. Bunda kelin o‘z ota-onasining uyida yashaydi⁴⁹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Nikoh to‘yiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonidagi urf-odat va marosimlar**» deb ataladi. Unda kuyov-kelin uylari, kiyim-kechak va taqinchoqlarida an‘anaviylik hamda nikoh to‘ylariga xos taomlar tasnifi va mahalliy xususiyatlari tahlil etiladi.

Surxon vohasi kuyov-kelin bilan bog‘liq an‘anaviy turarjoylarining etnohududiy xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, eng avvalo ushbu hududning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoiti va xo‘jalik-madaniy xususiyatlariga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Surxon vohasida ota-onalar to‘y arafasida o‘z o‘g‘illariga atab uylar qurib berishgan. Bu uylar «oq o‘tov» deb atalgan. Nikoh to‘yiga yangi o‘tov qilish odati xorazmliklarda⁵⁰, qipchoqlarda⁵¹, laqaylarda⁵² ham mavjuddir. Oq o‘tovning suyagi va kigizlarini kuyov tomon, o‘tovning uysozi, ya‘ni ichki jihozlarini kelin tomon tayyorlashgan. Oq o‘tovning kigizlari asosan oq jundan tayyorlangan. Vohada o‘tovni tiklash va buzish ishlarini faqat xotinlar bajarishgan⁵³.

XIX asr so‘nggi – XX asr boshlarida boy kishilar o‘z o‘g‘illarini uylantirayotganlarida «mushko‘zanak» o‘tov tayyorlatganlar. Mushko‘zanak – uvuqning keragaga oltin halqa bilan bog‘lanadigan qismidir. Kechasi chiroq yorug‘ida hamda erta tongda quyosh chiqayotganda tilla halqa o‘tov ichida yaltirab turgan. Bunday o‘tovni faqat xataklik usta Murod yasay olgan. Usta Murod Darband, Boysun, Shahrisabz, Samarqand va boshqa joylarga buyurtma asosida borib mushko‘zanak o‘tov yasab kelgan⁵⁴.

Surxon vohasi kuyov-kelin bilan bog‘liq an‘anaviy kiyimlari va taqinchoqlari moddiy madaniyatning bir qismini tashkil etib, marosim va an‘analar ta‘sirida o‘ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan. O‘zbek xalqining an‘anaviy kiyimlari va taqinchoqlari moddiy madaniyatning mushtarak bir qismini tashkil etib, xalqimizning milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. Rus elshunos olimi O.A.Suxareva ta‘biri bilan aytganda: kiyimning yuzaga kelishi va turlarining ko‘payishida kishilarning yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan

⁴⁸Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug‘i misolida). –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2014. –B. 173.

⁴⁹Dala yozuvlari, Boysun tumani, Pasurxi qishlog‘i, 2021-yil may.

⁵⁰Задыхина К.Д. Узбеки дельты Амударьи // Труды ХАЭЭ. –М., 1952. Т. I. –С. 357.

⁵¹Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Ташкент, 1974. –С. 225.

⁵²Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана// Труды АН Тадж. ССР. –Сталинабад, 1954. Т. XXVIII.

⁵³Dala yozuvlari, Denov tumani, Dunyotepa, Chuqur qishloqlari, 2014-yil may.

⁵⁴Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i, 2015-yil avgust.

tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o‘shishi ham asosiy omillardandir⁵⁵.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida O‘zbekistonda, shu jumladan, Surxon vohasida ham kuyov-kelinlar uchun tayyorlanadigan kiyim-kechaklar uchun zarur bo‘ladigan matolar asosan uy sharoitida tayyorlangan. Hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lganligi uchun matolar paxta va jundan, ba‘zi hollarda esa ipakdan tayyorlangan. XX asrning boshlariga qadar Denov, Vaxshivor, Sangardak, Xonjiza, Sina, Sho‘rchi, Qarluq kabi hududlarda teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar ishlab chiqarish o‘ziga xos tarzda rivojlangan⁵⁶.

Surxon vohasi kuyov-kelin bilan bog‘liq ayollarining kiyim-kechaklari rangini O‘zbekistonning boshqa mintaqalari bilan qiyoslaganda asosan qizil va och qizil ranglarni kiyishga moyillik seziladi. Umuman, Surxon vohasida kuyov-kelinlar uchun tayyorlanadigan kiyimlar uchun asos bo‘lgan matolarni tayyorlashda ham badiiy uslub asta-sekin o‘zgarib bordi, ammo 1920-yillari so‘ngidayoq to‘qish texnikasida muayyan siljishlar sodir bo‘lgan. Chunonchi, mahalliy ustalar tomonidan ishlab chiqariladigan matolarga fabrika iplarining qo‘shilishi, jumladan, mahalliy usulda tayyorlanadigan alachalarga Rossiya fabrikalarida tayyorlangan iplarni qo‘shib tayyorlash ularning yuqori sifatli, nafis va tekis matoga aylanishiga olib kelgan⁵⁷.

Sovet hokimiyatining ilk yillarida ishlab chiqarilgan matolar o‘zining an’anaviy ko‘rinishini saqlab qoldi. Bu davrda Surxon vohasida kuyov-kelinlar uchun kiyimlar avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan qadimiy matolardan – olacha, bo‘z, xonAtlas, qalami, banoras, shoyi, beqasam, adras, so‘si va boshqa matolardan tikilgan. XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos chiziq o‘tkazish uslubi davom ettirilgan va rivojlantirilgan. Ayollarning ko‘ylaklarida yoshiga qarab farq mavjud bo‘lib, o‘yma yoqali ko‘ylaklarni asosan xotinlar kiyishgan bo‘lsalar, qizlar hamda qariyalar ko‘ndalang yoqali ko‘ylaklar kiyganlar.

Surxon vohasida yosh kelinchaklar hamda boy xotinlar XX asrning 40-yillarigacha to‘ylarda, bayramlarda burunlariga sirg‘a, ya’ni «lativa» taqqanlar. Lativani Xonjiza, Xo‘jaasmin qishloqlarida «natibini» deb ataganlar. Lativa taqinchog‘i o‘zbek-laqaylarda ham mavjud bo‘lgan⁵⁸.

Surxon vohasidagi to‘ylar an’anaviy taomlari o‘zining xilma-xilligi va ishlatiladigan mahsulotlarning boyligi bilan diqqatga sazovor. Bu taomlar, turli xo‘jalik faoliyatlari natijasida shakllangan urf-odatlariga asoslanib, etnik va lokal xususiyatlar bilan boyitilgan. Ushbu taomlar, jismoniy rivojlanish, kuch-quvvat va aqliy kamolotning asosiy manbalaridan biri sifatida, xalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

⁵⁵Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. –М.-Л., 1954. Т. XXI. –С. 250-289.

⁵⁶Dala yozuvlari, Sho‘rchi, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari, 2018-2019 yillar.

⁵⁷Сухарева О.А. Художественные ткани // Рукопись Института искусствознания. Инв. 291. –С. 18.

⁵⁸Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. –Сталинабад, 1954. –С. 156.

XIX asrning oxiri va XX asrning dastlabki yarim asrida, dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi oʻzbek chigʻatoylar va tojiklar odatda don va sabzavot asosidagi taomlarni afzal koʻrishgan. Bunga qaramasdan, chorvachilik bilan mashgʻul boʻlgan oilalarda sut mahsulotlari, yogʻ va goʻsht keng tarqalgan. Qipchoqlar orasida ham shu kabi taomlar keng isteʼmol qilingan.

XX asr boshlarida Surxon vohasida toʻylar uchun don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taomlar muhim oʻrin egallagan. Yarim oʻtroq chorvador oilalarda un va yormalar yorgʻuchoqlarda, dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi oilalarda esa suv va hayvon kuchi yordamida ishlaydigan tegirmonlarda maydalanadi. Bunday taomlar orasida arpa, joʻxori, bugʻdoy va makkajoʻxori undan tayyorlangan turli xil ovqatlar va nonlar mavjud.

Shuningdek, voha aholisi toʻylarida goʻsht va goʻshtli mahsulotlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Qumqoʻrgʻon, Shoʻrchi, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlarida joylashgan chorvador yarim oʻtroq oilalarda goʻshtli taomlar koʻp isteʼmol qilinadi. Goʻshtdan pishirilgan ilikli suyuqlikni esa mehmonlarga taqdim etish anʼanasi keng tarqalgan.

Toʻylarda qaynatilgan goʻsht sovutilib, rus tilida "холодный" deb ataladigan tarzda dasturxonga tortiladi. Ilgari, odamlar toʻy qilayotgan qarindoshlariga qoʻy soʻyib, goʻshtni qaynatib, sovgʻa sifatida olib borishgan, biroq bu odat hozirda yoʻqolib bormoqda.

XX asrning 30-yillari oʻrtalarida Surxon vohasi toʻylari ratsioniga karam, pomidor, kartoshka kabi yangi mahsulotlar kirib kelgan. Dastlab bu mahsulotlarni "oʻris ovqati" deb qabul qilmaslik holatlari boʻlgan, ammo vaqt oʻtishi bilan ular milliy taomlar tarkibiga kirib, mahalliy oshxona madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.

Etnik va ijtimoiy guruhlariga qarab, voha dehqonchilik hududlarida yashovchi turk, chigʻatoy, xoʻja, qatagʻonlar asosan oʻsimlik mahsulotlaridan tayyorlangan taomlarni afzal koʻrishgan. Boshqa tomondan, togʻ oldi tekisliklari va dashtlarda chorvachilik bilan shugʻullanuvchi qarluq, yuz, doʻrmon kabi etnik guruhlar odatda marosimiy taomlarda goʻshtli mahsulotlardan koʻproq foydalanishgan.

Non mahsulotlari xamirturushli yoki xamirturushsiz tayyorlanadi. Nonni tandirda, tobatoshda, qozonda, choʻgʻ (qoʻr)da koʻmib pishiriladi. Nonning sifatli chiqishi xamirning iylanishiga va achitqining sifatiga bogʻliq boʻladi. Xamirturush bilan bogʻliq irim-sirimlarga qattiq amal qilingan. Chunonchi xamirturush ustida mushuk sakrab oʻtsa, yoki quyosh nuri tushib qolsa, non gullaydi deb oʻylangan va shunday holat boʻlmasligi uchun harakat qilingan. Xamirturushni ivitish paytida xamir qoriladigan katta tovoq tevaragidan uch marta aylantirib olishgan. Bu haplash xamirturushni buzilishdan saqlab, nonning gullab ketmasligiga qaratilgan. Xamir tezroq achishi (koʻpchishi) uchun uning ustiga supra va elak qoʻyilib «xamirim tezroq achi, toʻyga ketaman» degan iborani ishlatishgan. Xamirning koʻpchishiga qarab, uni mushtlagan xotinga baho berilgan. Bu toʻgʻrida: ichi qora, qoʻli ogʻir xotinning xamiri tezda achimaydi, yuragi toza, qoʻli engil xotinning xamiri tezda achiydi, deb aytishadi⁵⁹.

⁵⁹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Chilonzor qishlogʻi, 2014-yil aprel.

Umuman olganda, voha to‘ylarida qo‘yiladigan ovqat turlari xilma-xil bo‘lib, aholining yashash joyi va yil fasllariga bog‘liq bo‘lgan. O‘troq aholi turli-tuman ko‘katlar, sabzavotlar, mevalar va sabzavotlardan foydalanib to‘y va marosim ovqatlarini tayyorlashgan bo‘lsalar, chorvador aholi go‘sht va sutdan bir-biridan totli ovqatlar pishirganlar. Ayniqsa, katta yo‘l ustida joylashgan tog‘li hududlar aholisi to‘y pishiriqlarining ko‘pgina turlarini tayyorlaganlar. Ularning ayrimlari nainki bugungi kunga saqlanib qoldi, balki, butun yurtimiz bo‘ylab keng tarqaldi va to‘ylarning bosh taomiga ham aylandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Surxon-Sherobod vohasida nikoh to‘ylariga doir an’anaviy marosimlarning etnomadaniy tahlili»** deb ataladi. Unda an’anaviy nikoh to‘y marosimlarining etnik va hududiy xususiyatlari hamda xalq og‘zaki ijodida nikoh to‘yining tarannum etilishi o‘rganiladi.

Surxon vohasida nikoh to‘ylariga oid oilaviy marosimlar XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonning boshqa hududlarida yashovchi aholining marosimlari bilan umumiylik tomonlari bo‘lsa-da, ulardan urf-odat va udumlarga boyligi hamda rasm-rusumlar an’anaviyligining o‘ziga xos etnik va lokal xususiyatlari ko‘proq saqlanib kelganligi bilan ajralib turadi.

O‘rganilayotgan hududda an’anaviy nikoh to‘ylarini o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator urf-odatlar va marosimlar bo‘lib, uning eng muhim qismi nikoh hisoblanadi. Shuning uchun insoniyat ibtidoiy davrdan boshlab maxsus urf-odatlar tizimi orqali oilaning mustahkam bo‘lishiga qaratilgan tadbir sifatida nikoh marosimini o‘tkazib kelgan. Bu tadbir jamoatchilik tomonidan nishonlanib, oldiniga odat, keyinchalik yozma tarzda qonuniylashtirilgan marosim tusini olgan. Unashtiruv marosimidan keyin kuyov tomon to‘yga tayyor bo‘lishi bilan to‘y jo‘natiladi. Uni «Fotiha to‘yi» deb ham aytishadi. An’anaga ko‘ra, fotiha to‘yiga asosan qarindosh-urug‘lar hamda qo‘ni-qo‘shnilar taklif qilingan.

Ko‘p kishilar nikohdan bir kun oldin «qiz to‘yini» o‘tkazadilar. Qiz to‘yi aslida ko‘ngilli o‘tkaziladigan marosimdir. U nikoh to‘yidan oldin kelinning uyida o‘tkaziladi. Qiz to‘yiga kelinning dugonalari, qarindoshlar, qo‘shnilar taklif qilinadi. Bu marosimning o‘tkazilishi natijasida ota-onaga bo‘lgan hurmat, izzat kabi ma’naviy qadriyatlar yoshlar ongiga yanada singdiriladi. Yoshlarda xalqimiz qadriyatlariga, o‘z oilasiga va keksa avlod vakillariga hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Nikoh to‘yida kuyov va uning o‘rtoqlari kelinnikiga karnay va surnay sadolari ostida borishadi. Kelinning uyida ular uchun dasturxon bezatiladi. Kuyov va uning o‘rtoqlari mehmon qilinadi, osh beriladi va kuyovga zar chopon kiydiriladi. Kelin va kuyovning nikohlari domla-imom tomonidan (qonuniy nikohlari FXDYO tomonidan rasman qayd qilingandan keyin, nikoh guvohnomalariga asosan) o‘qiladi. Kuyov navkarlari dasturxondan turgandan keyin kelin uyidan yaxshi niyatlar bilan chinni idishlardan olib ketadilar.

Nikoh to‘ylari marosimida kuyovning do‘stlari, kelinning yaqin yigit qarindoshlari bilan birgalikda kuyovning marosimdan chiqishini kutib turadilar. Ulug‘ yoshdagi keksalar tomonidan tayyorlangan atlas matodan yasalgan poyandoz kuyovning oyoqlari ostiga to‘shaladi. Kuyov o‘ng oyoq bilan matoga qadam

qo‘ygach, yigitlar bu poyandozni tortish uchun harakat qiladilar, bu jarayon davomida poyandozning bir bo‘lagini yirtib olish uchun o‘rtasida sho‘x va quvnoq "kurash" boshlanadi. O‘yin natijasida yirtib olingan mato qismlari yaxshi niyatlar bilan olinib, kelajakda xotinlar tomonidan ro‘molcha yoki tumor tikish, shuningdek, kelin-kuyovlarga atalgan ko‘rpa-yostiqlar uchun bezak sifatida ishlatiladi.

Xatak qishlog‘ida nikoh to‘ylari an‘anaviy tarzda o‘tkaziladi. Masalan, ko‘hna udumga binoan, to‘y dushanba kuni bo‘lib o‘tadi. To‘y kuni erta tongda kuyov jo‘ralari bilan kelinning uyiga tashrif buyuradi. Qiz tomoniga to‘y munosabati bilan qo‘y-echki, meva-cheva, o‘nta tandir noni, o‘nta patir, o‘nta qatlama va o‘nta qatpatir jo‘natiladi, bu esa to‘yning boy va sermazzmun ekani dan dalolat beradi⁶⁰.

Qadimda kelinlar otga mindirib jo‘natilgan. Otga kelinning amakisi, tog‘asi, tug‘ishgan akasi yoki ukasi mindirib borgan.

Kuyov kelinni olib ketayotgan vaqtda «idish qaytdi» degan marosim ham o‘tkaziladi. Unda kuyovga bitta to‘n, bitta belqars, bitta qo‘yning son go‘shiti, kuyov tomon to‘yga olib kelgan tandir nondan ikkita, patirdan ikkita, qatlamadan ikkita, qatpatirdan ikkita, meva-chevalardan esa, bir-bir hovuch solib jo‘natiladi.

Kelinni olib kelgan kishini rozi qilish uchun unga to‘n va belqars berishgan. Shundan keyin kuyov kelinni otdan tushiradi. Kelinning ko‘rpa-to‘shaklarini tushirib olgan kishiga esa, bir kiyimlik mato berilgan. Bu marosim *tag bosdi* yoki *yuk bosti* deb ataladi. So‘ng kelinni kuyovning ota-onasi, opasi, aka-ukasi kutib oladi. Kuyovning onasi kelinning ota-onasiga kiyit beradi⁶¹.

Kelin otdan tushirilgach, *olovdan o‘tkazish marosimi* bo‘lib o‘tadi. Buning uchun hovlining kirish joyida olov yoqilgan. Har qanday ziyon-zahmat, suq va kinnalar, odamlarning yuki olovda yonib ketsin, uyga tozalanib kirsin degan mazmunda qaynona kelinni ikki gulxan o‘rtasidan olib kirgan. O‘zbekistonning ayrim hududlarida esa, kelinni ko‘tarib olovning atrofidan uch marta olib o‘tkazishgan.

Eng e‘tiborli jihati shundaki, oradan bir necha yillar o‘tishiga qaramasdan «kelin» odatdagidek udumlar asosida kuyov xonadoniga olib ketilgan. «Kelin tushirish»⁶², «uy qurdi», «uy tushirdi», «irga ko‘tardi» («qizini ko‘tardi» tushunchasida)⁶³ taomiliga asosan kuyov tomondan kelin xonadoniga 2 ta qo‘y, meva-cheva, paranji, chimmat, oq ro‘mol, bosh-oyoq sarpolar hamda bezatilgan ot olib borilgan. Otning o‘ng jiloviga oqlik bog‘langan. Bu «oqlik bog‘lash» udumini asosan qiz tomon bajargan⁶⁴.

Kelin-kuyovni to‘ydan keyingi qirq kun davomida chillada saqlashgan. Shu muddat ichida chimildiq xonasi yolg‘iz qolmasligi kerak bo‘lgan. Mabodo biron ish bilan boshqa joyga bormoqchi bo‘lsa uyga biron kishini, asosan yosh bolani qo‘yib ketishi lozim edi. Kichik chilla chiqmaguncha kelin va kuyov kechqurunlari ko‘chaga chiqishmagan. Bolasi o‘lgan bo‘lgan kishilar, ikki nikohli xotinlar va ajrashganlar irim qilinib chimildiqqa kiritilmagan.

⁶⁰Umarov I. Badash: tarix va an‘ana. –Termiz, 2018. –B. 39.

⁶¹Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i, 2015-yil, aprel.

⁶²Dala yozuvlari, Oltinsoy tumani, Vaxshivor qishlog‘i, 2018-yil, may.

⁶³Dala yozuvlari, Qumqo‘rg‘on tumani, Xo‘jamulki qishlog‘i, 1997-yil iyun.

⁶⁴Dala yozuvlari, Denov tumani, Duniyotepa qishlog‘i, 2021-yil sentabr.

Xatakda to‘ydan so‘ng kelin erta tongda hovlini supurgan. Ammo unga boshqa ish buyurishmagan. To yangi tushgan xonadonga moslashib ketguniga qadar unga vaqt berishgan. Agar to‘ydan keyingi uch kun ichida kelinni uy ishlari bilan band qilishsa, bu oiladan darz ketadi, degan fikr bor edi. Uch kun o‘tgach, qaynonasi kelina urchuqda oppoq ipak bergan. Kelin avval ipakni urchuqda yigiradi. Shundan keyingina unga ish buyurilgan. Asta-sekinlik bilan qaynonalar o‘z kelinlarini uy ishlariga o‘rgatib borishgan. Chilla vaqtida kelinlar qora rangli kiyimlarni tikishi mumkin emas edi. Negaki, baxti buziladi deb hisoblaganlar⁶⁵.

To‘ydan uch kun o‘tgach, *kuyov chaqirdi* marosimi o‘tkazilgan. Qaynota o‘z kuyovini mehmondorchilikka chaqirgan. Kuyov o‘zining eng yaqin kishilari bilan birga qaynotasining uyiga borgan. Kuyov chaqirdiga dastlab qaynota kuyovning oldiga birinchi bo‘lib oshni qo‘yar edi, lekin kuyov ovqatni olmay turadi. Shunda qaynota kuyovni ko‘rmanasi uchun bir buzoq sizga degandan keyingina kuyov ovqatni er edi. Bu sovg‘a *mol boshi* deyiladi. Kelin va kuyov mol boshi deb berilgan sigirni meros deb hech qachon yo‘qotmagan, sotmagan. Bu sigirning bolasini ham sotmagan. Qaynotasi bergan sigirning naslini vaqti kelganda o‘zining bolasiga ham bergan. Kuyov chaqirdiga iloji etgan kishilar qo‘y, uloq yoki qo‘zi so‘ygan, kuyovi va u bilan birga kelganlarga to‘n yopgan. Ayollarga kiyit berganlar⁶⁶.

Termiz tumani Ayritom qishlog‘ida yashovchi turkmanlarda quda chaqiriq marosimi kuyov tomonidan o‘tkaziladi va unda kelin tomondan 15-20 kishi qatnashadi. Ushbu an‘anadan kutilgan maqsad yangi qudalarni mahallaga, qo‘ni-qo‘shnilarga, qarindosh-urug‘larga tanishtirishdir. Marosim nikoh to‘yidan so‘ng faqat oilaviy tartibda o‘tkazilishi belgilangan⁶⁷.

Panjob qishlog‘ida ota qizini chaqirganda qudaga bitta chopon, kuyovga bitta ko‘ylak, ayollarga mato va ro‘mol bergan. Ota qiz ko‘rarga 1 ta qo‘chqor olib borgan. Agar kelin toza chiqsa 1 ta qo‘y so‘yilib, «tunuk sho‘rva» qilib xalqqa tarqatishgan⁶⁸.

O‘zbek to‘ylari va ular bilan bog‘liq an‘anaviy marosimlar, o‘z ildizlarini voha aholisining qadimiy tarixi va madaniyatidagi serqirra urf-odatlardan olgan. Ushbu marosimlar hududiy va etnik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning boy ma‘naviy madaniyatidagi o‘rinlari alohida ahamiyatga ega.

XX asrning o‘rtalariga kelib, o‘zbek to‘ylarida kuzatilgan o‘zgarishlar, jumladan Sovet davrida keng tarqalgan «qizil to‘y» va «komsomol to‘y» kabi yangi shakllar, milliy an‘analarning zamonaviylashtirilishi va jamoalashtirish siyosati natijasida ro‘y berdi. Bu jarayon aholining yangi o‘zlashtirilgan hududlarga ko‘chirilishi bilan ham bog‘liq edi va shaharlar hamda yirik qishloqlarda tez sur‘atlar bilan kechdi.

Shunga qaramay, XX asrning 70-80-yillariga kelib ham, o‘zbek to‘ylarida etnik an‘analarning umumlashgan va aralashgan shakllari saqlanib qolgan. Bu an‘analar ayniqsa, xalqning ma‘naviy madaniyatida, oilaviy qadriyatlar, bayram va o‘yintomoshalar orqali yaxshi ko‘rinish topgan, bu esa o‘z navbatida milliy identitetning davomiyligini ta‘minlagan.

⁶⁵ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatakqishlog‘i, 2015-yil avgust.

⁶⁶ Dala yozuvlari, Angor tumani, Qorasuv qishlog‘i, 2022-yil may.

⁶⁷ Dala yozuvlari, Termiz tumani, Ayritom qishlog‘i, 2021-yil mart.

⁶⁸ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Panjob qishlog‘i, 2022-yil may.

O‘zbek madaniyatida kuyov va kelin bilan bog‘liq an’anaviy to‘y marosimlari va ularning turli qo‘shiqlari, rasm-rusumlar orqali ma’naviy va madaniy meros o‘z ifodasini topgan. Bu marosimlar o‘z ichiga turli janrlarga mansub qo‘shiqlarni oladi, jumladan, «O‘lan», «Yor-yor», «Kelin salom» kabi qo‘shiqlar, ular har biri alohida yosh toifasiga mos ravishda ijro etiladi. Masalan, o‘lan qari kishilar tomonidan kuylanib, ularning turmushi va kechmishi haqida hikoya qilinadi, yor-yor esa yigitlar va qizlar o‘rtasida ijro etiladi va zamonaviy mavzularni o‘z ichiga oladi.

Surxondaryo viloyatining xalq og‘zaki ijodida lapar va kelin salom qo‘shiqlari ham muhim o‘rin tutadi. Bu qo‘shiqlar orqali vafodorlik, oilaviy qadriyatlar, hamjihatlik va Vatanga muhabbat kabi tushunchalar ifoda etiladi. Kelin salom, ayniqsa, to‘ydan keyingi kuni aytiladi va kelin tomonidan turli oilaviy va qo‘ni-qo‘shni munosabatlari haqida tushunchalar beradi.

To‘ylar davomida tashkil etilgan turli xil an’anaviy o‘yinlar va tomoshalar, masalan, ko‘pkari, olish, xo‘roz urushtirish va dorboz o‘yinlari ham o‘zbek madaniyatining boyliklarini namoyish etadi. Kechki payt esa, o‘t yoqilib, baxshilar doston va termalarini kuylashi, yoshlar esa ashula va raqs ijro etishi bilan o‘yinkulgilar davom ettiriladi. Bu tadbirlar o‘zbek xalqining boy madaniy merosini yorqin tasvirlaydi va uning ma’naviy qadriyatlarini avlodlarga yetkazadi.

Umuman olganda, to‘yga tayyorgarlik va uni o‘tkazish bilan bog‘liq marosimlarda asosiy e’tibor yoshlarning baxtli bo‘lishi hamda el-yurtning birikuviga qaratilgan. Nikoh to‘ylarini o‘tkazishda bir qator udumlarni amalga oshirishgan bo‘lib, ular aholining yashash joyi va sharoitiga qarab turlicha bo‘lgan. Surxondaryo viloyati aholisi nikoh to‘ylariga bag‘ishlab ko‘plab qo‘shiqlar, dostonlar, rivoyatlar, afsona va ertaklar, xalq maqollari va she’rlar yaratgan. Mintaqadagi ayrim qo‘shiq turlarining boshqa joylarda uchramasligi o‘lka musiqiy hayoti o‘ziga xos tarzda taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Surxon-Sherobod vohasida kuyov-kelin bilan bog‘liq nikoh marosimlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oila er-xotin, farzandlar va yaqin qarindoshlardan tashkil topgan ijtimoiy birlik bo‘lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Surxon vohasida nikoh munosabatlari shariat va odat huquqi asosida tartibga solingan. Odatlarga asoslangan nikoh turlariga «levirat», «sarorat», «voy-voy nikoh», «qarshi quda», «kuch kuyov», «ich kuyov» kabi shakllar kirgan. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlashga katta ahamiyat berilgan. Er va xotin o‘rtasidagi majburiyatlar, mahr, ajrim kabi masalalar alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan.

2. Sovchilik va unashtiruv marosimlari har bir qishloq va tumanda o‘ziga xos shakllarda rivojlangan. «Bel quda», «etak yirtish», «quloqtishlar», «beshikkerti», «olmaotar», «tuxumotar» kabi udumlar keng tarqalgan. Unashtiruv udumlari orasida «patiya», «non ushatish», «yaloq qizartar» kabi marosimlar mavjud bo‘lib, unashtirilganlar «patiyaxanda» deb atalgan.

3. Yarim o‘troq aholi mavsumiy turar-joylardan – lochiq, kapa, o‘tovlardan foydalanishgan, o‘troq aholida esa guvala, paxsa, tosh devorli uylar afzal ko‘rilgan.

Kiyim-kechaklarda qizil va och qizil ranglarga ustunlik berilgan. Texnika taraqqiyoti tufayli kiyim tikish usullari va mato tayyorlash texnologiyasida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan.

4. Surxon vohasiga xos kuyov-kelin marosimlarida tayyorlanadigan taomlar o'zlarining rang-barangligi va boyligi bilan alohida ajralib turadi. Turmush tarzidagi o'zgarishlar ushbu taomlarning tayyorlanish texnologiyalari va uslublarida ham sezilarli iz qoldirgan bo'lib, ular orqali voqa madaniyatining rivojlanish jarayonlarini kuzatish mumkin.

5. Hududdagi nikoh marosimlari xalqning qadimiy an'analari va urf-odatlarining serqirraligi bilan ajralib turgan. XX asrning 50-60-yillarida marosimlar transformatsiyaga uchragan bo'lsa-da, Surxon vohasida etnik va lokal xususiyatlar saqlanib qolgan. Bu marosimlar aholining boy ma'naviy va madaniy merosidan darak beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari voqa aholisining nikoh bilan bog'liq urf-odat va marosimlarida madaniy, iqtisodiy hamda ijtimoiy omillarning yaqqol namoyon bo'lganini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya tadqiqotlari asosida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ilgari surildi:

Nikoh va oila munosabatlarini o'rganishning kompleks yondashuvini rivojlantirish. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, nikoh va oila munosabatlari o'zbek xalqining etnomadaniy va ijtimoiy hayotining muhim qismidir. Ushbu masalani kompleks ravishda o'rganish uchun tarix, etnologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalarining integratsiyasini kuchaytirish zarur. Nikoh va oila munosabatlarining tarixi va bugungi kundagi o'zgarishlarini tahlil qilishda arxiv hujjatlari, og'zaki ijod namunalaridan foydalangan holda, o'zaro bog'liq omillarni chuqur o'rganish talab etiladi. Bu kelajakda an'anaviy urf-odatlarini saqlab qolish va yangi davr talablariga moslashtirishga yordam beradi.

Hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda nikoh marosimlarini tadqiq qilishni davom ettirish. Surxon vohasining nikoh to'ylariga xos etnik xususiyatlar va hududiy o'ziga xosliklar tadqiqotda keng yoritilgan. Ushbu hududiy tahlillarni O'zbekistonning boshqa mintaqalariga ham tatbiq qilish orqali milliy nikoh marosimlarining xilma-xilligini chuqurroq o'rganish mumkin. Har bir hududning o'ziga xos an'analari va urf-odatlarini xalq madaniy merosining boyligini namoyon qiladi. Shu sababli, bu tadqiqotlar nafaqat tarixiy tahlil, balki mintaqaviy farqlarni hisobga olgan holda, turizm va madaniy targ'ibot uchun ham asos bo'lishi mumkin.

Nikoh marosimlariga xos taom va kiyim-kechaklarni brend sifatida targ'ib qilish. Nikoh marosimlari davomida ishlatiladigan taomlar va milliy liboslar, taqinchoqlar nafaqat madaniy ahamiyatga ega, balki iqtisodiy jihatdan ham katta salohiyatga ega ekani ko'rinib turibdi. Tadqiqotda nikoh taomlarining tasnifi va milliy liboslarning an'anaviy uyg'unligi batafsil yoritilgan. Ushbu merosni turizm va hunarmandchilik rivojiga yo'naltirish orqali milliy brend sifatida targ'ib qilish tavsiya etiladi. Bu nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

Nikoh marosimlarining ma'naviy va poetik jihatlarini targ'ib qilish. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodida nikoh to'ylari poetik ifodasi muhim o'rin egallashi

ko'rsatilgan. Ushbu an'anaviy she'riy asarlarni yig'ish, nashr qilish va zamonaviy madaniy loyihalarda targ'ib qilish xalq merosini saqlash va yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nikoh marosimlarining ma'naviy ahamiyatini keng ommaga tushuntirish orqali an'analarni asrab-avaylash va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Ushbu tashabbuslar orqali mazkur hududlarning tarixiy-madaniy merosini keng ommaga namoyish etish va global miqyosda tanitish imkoniyati yaratiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ДУСНАЗАРОВА МАВЖУДА ИЛЬЯМОНОВНА

**ВЛИЯНИЕ БРАЧНЫХ ОБРЯДОВ, СВЯЗАННЫХ С ЖЕНИХОМ И
НЕВЕСТОЙ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ, НА ЭТНОКУЛЬТУРНЫЙ
ПРОЦЕСС (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX — НАЧАЛО XXI ВЕКА НА
ПРИМЕРЕ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА)**

07.00.07 – Этнография, этнология и антропология

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

Термез – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2022.4.PhD/Tar1268 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета (www.tersu.uz) и на информационно - образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Рахмонов Фахриддин Шоймардонович
доктор исторических наук (DSc), профессор
Эшкурбонов Сирожиддин Бозорович
Доктор философии по исторических
наукам (DSc), доцент

Ведущая организация: Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится « 27 » декабря 2025 года в 10.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019. Tar. 78.02 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, город Термиз., улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Термезском государственном университете (зарегистрирована под номером № 342).

Автореферат диссертации разослан « 15 » декабря 2025 года (Протокол реестра рассылки № 11 от « 15 » декабря 2025 года).


Т.Р.Пардаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, профессор

О.А.Хамидов
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии (PhD) по историческим
наукам наукам, доцент

Х.Э.Холмунинов
Председатель Научного семинара при
Научном Совете по присуждению
ученых степеней, доктор исторических
наук, доцент



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В глобализирующемся мире традиционные семейные ценности считаются одним из ведущих факторов духовной устойчивости государств и проявления национальной культурной самобытности на международном уровне. Семейные обряды, в частности свадебные и брачные традиции, занимают важное место в социальной структуре общества, обеспечивая духовную связь между поколениями и преемственность традиционного воспитания. Культурные изменения, происходящие в мире, а также процессы индустриализации и урбанизации являются одними из факторов, влияющих на совершенствование форм брачных обрядов и их содержательные аспекты. Именно поэтому в настоящее время многие развитые государства разрабатывают государственную политику, направленную на сохранение национального наследия, поощрение семейных традиций и укрепление исторической памяти в сознании нового поколения. Особенно следует отметить, что ЮНЕСКО и другие международные культурные организации осуществляют последовательные меры по защите культурного наследия, сохранению национальных свадебных обрядов и традиционных семейных обычаев в развивающихся странах⁶⁹. В частности, к ним относятся повышение воспитательной роли свадебных обрядов в духовном воспитании молодого поколения, документирование традиционных обрядов, их научное изучение и восстановление.

В научных центрах развитых стран мира проводятся исследования, направленные на изучение брака и связанных с ним обычаев и обрядов в узбекской семье. Потому что узбекская семья имеет прочный фундамент и отличается богатыми историческими традициями. Кроме того, изучение брачных обрядов и обычаев в нашей стране посредством научных исследований еще больше повышает актуальность данной темы.

Особое внимание уделяется вопросам углубленного научного исследования влияния института брака на этнокультурное развитие узбекской семьи в эпоху реформ нового Узбекистана. В качестве одного из приоритетных направлений государственной политики реализуются меры, направленные на оказание всесторонней поддержки молодым семьям, защиту их правовых интересов, материальную и моральную поддержку, а также создание здорового климата в семье. Эти процессы служат укреплению семейных ценностей и гармонизации их с процессами национального развития. Поэтому изучение брака и связанных с ним исторических традиций определяет эту тему как актуальное и необходимое направление.

Данная диссертация имеет особое научно-практическое значение в реализации задач, поставленных Президентом Республики Узбекистан в области культуры, искусства, семьи и женщин. В частности, УП-6000 от 26

⁶⁹ ЮНЕСКО. Всеобщая декларация о культурном разнообразии: принята 2 ноября 2001 г. на 31-й сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО // Организация Объединённых Наций. – URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/cultural_diversity.shtml (дата обращения: 28.07.2025).

мая 2020 года «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества», УП-60 от 28 января 2022 года «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-81 от 1 марта 2022 года «О мерах по совершенствованию системы работы с семьей и женщинами, поддержке махалли и просветителей», УП-87 от 7 марта 2022 года «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин», а также УП-185 от 14 ноября 2024 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы социальной защиты детей», а также иные нормативно-правовые акты, относящихся к данной сфере. Данное исследование может быть использовано в качестве теоретической основы и практической поддержки в реализации данных решений.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно–просветительском развитии информационного общества и демократического государства». Данная научная работа направлена на содействие решению теоретических и практических вопросов в рамках заданного направления.

Степень изученности проблемы. Исследования по данной теме были проанализированы, разделены на три основных периода: первый – научные исследования, проведенные во время правления царской России; второй – исследования, проведенные во время Советского Союза; третий – научные разработки, проведенные в годы независимости. Конкретные научные подходы и методологические достижения каждого периода рассматривались отдельно.

